

Sayohatchilar uchun xushxabar: Nukus – Oqtoʻba – Nukus yoʻnalishida yangi parvoz!

2021 14 Iyul

“Uzbekistan Airways” AJ 2021-yil 29-iyulidan boshlab Nukus – Oqtoʻba – Nukus yoʻnalishida haftasiga bir marta payshanba kunlari muntazam qatnovni amalga oshiradi.

Nukus – Oqtoʻba yoʻnalishidagi aviachipta narxi 1 071 693 soʻmdan, Nukus – Oqtoʻba – Nukus yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi esa 1 853 472 soʻmdan boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.

Aloqa-markazi raqami: +998 78 140 02 00 (kecha-yu kunduz).

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati.